Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Kursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	795
Begaliyev Fayzali Umaraliyevich	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar	798
Mahmudov Otamurod Hoshimovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haykaltaroshlik san'ati bilan korruptsiyaga qarshi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish	802
Toshpulatova Fotima Saydullayevna	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari	805
Abdulvohidov Turg'unali Abduqaxxor o'g'li	
Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri	808
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	811
Amonova Madina Furkatovna	
Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya.....	814
Arabbayeva Zamiraxon Tadjibayevna	
PISA 2025 tadqiqotlariga doir tajriba sinov ishlari (O'zbekiston misolida).....	817
Doniyorov Muxiddin Normamatovich	
Maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanish va tahlil qilish.....	820
Eshmuratova Gauhar Maxsudovna	
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	824
Matjanova Gulzada Annabayevna	
Al-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	828
Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish	832
Rahmonova Zamiraxon Yakubovna	
Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi.....	835
Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.....	838
Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna	
Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari.....	843
Ergasheva Mahbuba	
Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность	846
Уринбаев Исроилжон Кадиrhoнович	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar.....	851
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
Talabalarda milliy tarbiya va axloqiy immunitet tushunchalarini rivojlantirishning milliy-tarixiy kontekstual jihatlari	855
Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich, Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna	
TRIZ texnologiyasi – uchinchi renessans poydevori	860
Yusupova Gulshiraxon Zinatdinovna	
Yoshlar mafkurasini shakllantirishda hozirgi zamon ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning o'rni.....	865
Xonimov Sharofiddin Bahodirovich	
O'zbek tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va xususiyatlari.....	870
Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna	
Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari tarixidan	874
Abduraimova Charos Nodir qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini boshqaruv madaniyatini shakllantirish omillari.....	878
Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna	
Gandbol sport turini umumiy o'rta ta'lim maktablarida rivojlantirish.....	881
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li, Abduraxmonov Saydillo Xakimovich	
PIRLS xalqaro tadqiqotida matn, topshiriqlar va baholash mezonlari	884
Amonova Aziza Saydulloyevna	



Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	888
<i>Amonova Madina Furkatovna</i>	
Morfonologiya va uni umumiy ta'lim tizimida o'qitish	891
<i>Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna</i>	
Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi	894
<i>Azimov Ibragimjon Toshpo'latovich, Mirzaboev Timur Bisenboy o'g'li, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va umumiy tuzilishi	898
<i>B. R. Xudoyberdiyev</i>	
Cognitive Justification of Humor in Modern Linguistics	901
<i>Bektoshev Mubashirkhon Odilbek Ugli</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish	905
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
Toshkent viloyatida rekreasion faoliyat rivojlanishining asosiy muammolari	910
<i>Djurayeva Lobar Vaxitovna</i>	
Didactic Features of Using E-Portfolios in Continuing Professional Development of Teachers	915
<i>Erkaboyeva Saodathon</i>	
O'quvchilar xulqida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning koreksiyalashga xizmat qiladigan manbalar	918
<i>F. A. Choriyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilida lug'at boyligini oshirishning samarali usullari	921
<i>G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi</i>	
Kitobxon badiiy adabiyotni qanday anglaydi	924
<i>Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	928
<i>Ibragimova Dilnoza Rashid qizi</i>	
The Pedagogical Role of the Community in Promoting Abilities of Students	931
<i>Isabayeva Dilfuza Komiljonovna</i>	
Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni	934
<i>Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna</i>	
Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ingliz tili darslarida interaktiv media vositalarining ta'siri	938
<i>Ismoilova Zarifa Abduqaxxorovna</i>	
O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	942
<i>Jabborova Shahodat Ibrohim qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida deontologik qadriyatlar va professional etikani rivojlantirish	945
<i>Kalandarova Fazilat Toxirovna</i>	
Voleybolda maxsus chidamlilikni rivojlantirishning umumiy tushunchalari	948
<i>Karimova Gulhayo Botirjon qizi</i>	
The Portrait of the Image of Manfred in the Translation of J.G. Byron's Poem "Manfred"	953
<i>Kurbonov Parda Akhmedovich</i>	
Suv aralashmasi temperaturasi aniqlash	958
<i>Mamatova Go'zaloy Jo'ramirzayevna, Mashrabboyeva Mubina Bobomurod qizi, Abdurahmonova Gulasal Avazbek qizi</i>	
Yosh bokschilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo'llari	961
<i>Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	965
<i>Mamura Tadjibayeva</i>	
Adabiy ta'limda scamper metodining qo'llanilishi	969
<i>Marjona Toshpulatova</i>	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari	974
<i>Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna</i>	
Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari ..	977
<i>Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi</i>	
"Jasper Jones" as New Life Given to The Novel "To Kill a Mockingbird"	982
<i>Nargiza Akhrorova</i>	

Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	985
<i>Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon</i>	
Matematika darslarida kombinatorika elementlari va mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodikasi ..	990
<i>Panjiyeva Shahlo Zulfikhor qizi</i>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar.....	993
<i>Raximova Charosxon Baxromjon qizi</i>	
Kurash texnikasi va taktikasini bolalarga o'rgatish yo'llari	996
<i>Raxmonov Dilmurod Nusratovich</i>	
Pedagogical Technologies in Modern Education: Trends and Applications.....	999
<i>Salimova Bakhora Khurbanovna</i>	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari.....	1003
<i>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlari mavzusini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish.....	1006
<i>Shomurotova Sevinchoy San'at qizi</i>	
Kredit-modul tizimida texnologik fanlar o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli avtomatlashtirilgan o'quv modullari yaratish imkoniyatlari	1009
<i>Turdikulova Sevara Abdumo'minovna</i>	
Tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va murabbiylik an'analarning uzviyligi	1012
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	1016
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Pedagogical Situation of Developing Students' Critical Thinking	1020
<i>Usmonova Oydin Sherali kizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning didaktik omillari	1024
<i>Xolmo'minova Bahora Abduljalolovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik tamoyillar ..	1027
<i>Xurshidjon Raximov Xursandjon o'g'li</i>	
O'zbekistonda steam ta'lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari	1031
<i>Yaxshiboyeva Sitara Toshpulat qizi</i>	
Oliy ta'limda talabalar ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarning o'rni va imkoniyatlari	1034
<i>Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich</i>	
Talabalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir olib borilayotgan ishlarning joriy holati	1037
<i>Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi</i>	
Ingliz tili fanini o'qitishda (PBL) loyiha va muammoga asoslangan metodika: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot	1040
<i>Zarina Tasheva Djumayevna</i>	
Актуальные проблемы изучения русского языка	1043
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Применение цифровых средств обучения в курсе "Окружающий мир" для изучения народной экологии в начальной школе	1046
<i>Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи</i>	
Tasviriy san'at darslarini o'qitishga innovatsion yondashuv.....	1049
<i>N. P. Kaipov</i>	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1052
<i>Каримова Нуржахон Олим кизи</i>	
Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi diagnostikasining kvalimetrik texnologiyalari	1056
<i>Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna</i>	
Анализ элективных курсов по информатике в зарубежных странах и их аналогов в системе образования Узбекистана	1060
<i>Урынбаева Азада Бахадировна</i>	
Multimedia texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi.....	1064
<i>Raximova Dilfuza Abduraxmonovna</i>	



MAKTAB DIREKTORLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA ASOSIY USTUN AMALIYOTLAR VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA ULARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Mamura Tadjibayeva

Abdulla Avloniy nomidagi

Pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribada samarali deb e'tirof etilgan to'rt ustun amaliyot – jamoaviy ishlash (teaming), yetakchilik rollari (leadership roles), hamkasblik asosida izlanish (collegial inquiry) va murabbiylik (mentoring) – konseptual va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Drago-Severson va Blum-DeStefano tomonidan ilgari surilgan model asosida mazkur ustun amaliyotlarning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari aniqlanadi. Maqolada, shuningdek, Minnesota shtatining rahbarlikni baholash modeli, mahalliy ta'lim siyosati, "Direktorlar maktabi" tajribasi va malaka oshirish kurslaridagi reflektiv metodlar ham tahlil qilinib, ularning integratsiyalashuv mexanizmlari tizimli tarzda yoritiladi. Yakuniy xulosalarda maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda individual rivojlanish, dalillarga asoslangan baholash va tizimli hamkorlikning ustuvorligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: maktab rahbarligi, ustun amaliyotlar, teaming, murabbiylik, refleksiya, rahbarlarni baholash, liderlik salohiyati, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Abstract: This article explores four internationally recognized pillar practices for supporting school principals: teaming, leadership roles, collegial inquiry, and mentoring. Based on the model proposed by Drago-Severson and Blum-DeStefano (2018), the paper analyzes how these practices can be adapted to the context of Uzbekistan's education system. The study also examines Minnesota's principal evaluation model, local leadership development initiatives such as the "School for Principals," and reflective practices in professional training programs. The conclusion emphasizes the importance of individualized development, evidence-based evaluation, and structured collaboration as key components in building sustainable school leadership capacity.

Key words: school leadership, pillar practices, teaming, mentoring, reflection, principal evaluation, leadership capacity, Uzbekistan education system.

Аннотация: В статье анализируются четыре ключевые практики поддержки директоров школ, признанные эффективными в международной образовательной среде: командная работа (teaming), лидерские роли (leadership roles), коллегиальные исследования (collegial inquiry) и наставничество (mentoring). На основе модели Драго-Севенсон и Блум-ДеСтефано (2018) рассматриваются возможности адаптации этих практик в системе образования Узбекистана. Кроме того, анализируется модель оценки руководителей штата Миннесота, местная политика поддержки директоров, деятельность "Школы директоров", а также методы рефлексивного обучения на курсах повышения квалификации. В заключении подчеркивается важность индивидуального развития, оценки на основе доказательств и системного взаимодействия.

Ключевые слова: школьное руководство, ключевые практики, командная работа, наставничество, рефлексия, оценка руководителей, лидерский потенциал, система образования Узбекистана.

KIRISH

Bugungi kunda maktab direktorlaridan faqatgina boshqaruv vazifasini bajarish emas, balki o'z maktablarini o'zgarish sari yetaklash, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ta'lim sifati ustida izchil ishlash talab etiladi. Bunday murakkab vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun direktorlar markaziy boshqaruv organlari, xususan, tuman yoki viloyat xalq ta'limi bo'limlari tomonidan muntazam va samarali tarzda qo'llab-quvvatlashi kerak. Drago-Severson va Blum-DeStefano tomonidan taklif etilgan to'rt asosiy "ustun amaliyot" (pillar practices) – jamoaviy ishlash (teaming), yetakchilik roli (leadership roles), hamkasblik asosida izlanish (collegial inquiry) va murabbiylik (mentoring) – maktab direktorlarini rivojlantirish va ularning yetakchilik salohiyatini oshirishda muhim omillar sifatida e'tirof etiladi ^[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashga doir to'rt asosiy ustun amaliyotning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashuv imkoniyatlari sifat jihatidan kontent tahlil metodi asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida xalqaro modellar (masalan, Minnesota shtatining direktorlarni baholash modeli) va milliy me'yoriy hujjatlar (jumladan, PF-79-sonli Prezident farmoni va Xalq ta'limi vazirligining metodik ko'rsatmalari) qiyosiy yondashuv asosida o'rganildi. Manbalar tanlovi ularning mavzuga dolzarbligi, nazariy asoslanganligi va liderlik salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiqligi mezonlari asosida amalga oshirildi. Tahlil uchun Drago-Severson va Blum-DeStefano tomonidan ilgari surilgan konseptual model asosiy nazariy asos sifatida tanlandi ^[1]. Tadqiqot milliy tajriba va ekspert fikrlari bilan boyitilib, kontekstual dolzarblilikni ta'minlashga qaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Teaming – bu maktablararo va rahbarlararo hamkorlikni chuqurlashtirish orqali o'zaro tajriba almashish, fikr bildirish, tanqidiy yondashuvni shakllantirish va izolyatsiyani kamaytirish vositasidir ^[1]. L. Sutchter va boshqalar ta'kidlashicha, yirik shaharlardagi (masalan, New York, San-Diego) maktab tumanlarida professional o'quv hamjamiyatlari (PLC) tashkil etilgan bo'lib, ular direktorlar uchun umumiy muammolarni birgalikda hal etish imkonini yaratgan ^[2].

O'zbekistonda esa bunday formal professional tarmoqlar hali keng qo'llanilmaydi. Ba'zi hollarda, tuman xalq ta'limi bo'limlari tomonidan o'tkaziladigan "rahbarlar seminarlari" yoki "ustozlik darslari" bu amaliyotga o'xshash bo'lsa-da, ular tizimli va maqsadli tarzda tashkil etilmaydi. Biroq, so'nggi yillarda bu borada muhim ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son' Farmoniga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida eng tajribali umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlaridan iborat Direktorlar kengashlari tuzildi ^[11]. Ushbu kengashlar direktorlar o'rtasida tajriba almashish, muammolarni birgalikda hal etish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, "Direktorlar maktabi" tashkil etilib, direktorlik lavozimiga nomzodlar zaxirasini shakllantirish, ularni o'qitish, bilim va ko'nikmalarini baholash va sertifikatlash tizimi joriy etildi. Bu esa direktorlar o'rtasida professional tarmoqlanishni kuchaytirish va ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda teaming amaliyotini yanada samarali joriy etish uchun quyidagi tizimli chora-tadbirlar zarur:

- birinchidan, direktorlar tarmog'ining maqsadi, vazifalari, ishtirokchilari va faoliyat shakllarini belgilovchi hujjat ishlab chiqilishi lozim;
- ikkinchidan, hududiy direktorlar forumlari tashkil etilishi va ularning doimiy ishlashi ta'minlanishi kerak;
- uchinchidan, Milliy ta'lim portalida "Direktorlar tarmog'i" bo'limi ochilishi va onlayn hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilishi zarur;
- to'rtinchidan, har bir tarmoqda tajribali direktorlar mentor sifatida tayinlanib, yangi rahbarlarni yo'naltirishi lozim;
- beshinchidan, problem-based learning asosida seminarlar o'tkazilishi;
- oltinchidan, universitetlar bilan birgalikda ilmiy loyihalar amalga oshirilishi;
- yettinchidan, tarmoqlar faoliyati uchun byudjetdan mablag' ajratilishi;
- va nihoyat, faoliyat samaradorligini aniqlash uchun indikatorlar ishlab chiqilishi lozim.

Direktorlar mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan birga, ular turgan tizimda o'zlariga bo'lgan ishonch va erkinlikni his qilishlari kerak ^[1].

B. Alvold va J. Black markaziy idora rahbarlarini direktorlarni murabbiylik asosida qo'llab-quvvatlashga o'rgatish zarurligini taklif qilgan ^[7]. O'zbekistonda bu borada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, direktorlarning o'rinbosarlarini ishga olishda mustaqillik berilishi, ularning menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kurslar va sertifikatlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Minnesota shtatining rahbarlarni baholash modeli direktorlarga baholash orqali emas, balki kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaralishini ta'kidlaydi ^[4]. Ushbu model o'zining mazmuni va yondashuvi jihatidan zamonaviy ta'lim tizimi talablariga mos keladi.

Model direktorlarga baholash orqali bosim o'tkazish yoki ularning lavozimga yaroqliligini aniqlashni emas, balki rahbarning kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida xizmat qilishni ko'zda tutadi. Bunday yondashuv o'zini-o'zi rivojlantirish, refleksiv o'rganish va doimiy kasbiy o'sishni targ'ib etuvchi ilg'or boshqaruv paradigmasiga asoslanadi. Bu modelda direktor baholanuvchi emas, hamkor

1 <https://lex.uz/docs/-6476175>



sifatida ishtirok etadi. Baholovchi (ko'pincha markaziy boshqaruv vakili) esa nazorat qiluvchi emas, balki murabbiy rolini bajaradi. Bunda rahbar faoliyati aniq mezonlar asosida tahlil qilinib, unga individual rivojlanish rejasini tuzish tavsiya etiladi.

Minnesota modelining asosiy g'oyalarini quyidagi yo'llar bilan O'zbekiston sharoitida joriy qilish mumkin deb hisoblaymiz:

- 1) Baholashni rivojlantirishga yo'naltirish – direktorlar attestatsiyasi jarayoni qayta ko'rib chiqilib, unda asosiy e'tibor direktorning malakasiga emas, balki uning kasbiy o'sish dinamikasiga, muammo yechishdagi yondashuvlariga va liderlik uslublariga qaratilishi zarur.
- 2) Individual rivojlanish rejalarini joriy qilish (IDP) – baholash natijalariga asoslanib, har bir direktor uchun shaxsiy o'sish xaritasi tuziladi. Bu xaritada o'rganilishi kerak bo'lgan sohalar, qatnashishi lozim bo'lgan treninglar va belgilangan muddatlar aniq ko'rsatiladi.
- 3) Rivojlantiruvchi metodistlar tayyorlash – tuman va viloyat xalq ta'limi bo'limlaridagi metodistlar faqat tekshiruvchi emas, balki rahbarni yo'naltiruvchi sifatida tayyorlanishi, coaching asoslarini o'zlashtirishi lozim.
- 4) Monitoring va qayta aloqa mexanizmlarini kuchaytirish – baholash bir martalik tadbir sifatida emas, balki doimiy rivojlanish jarayonining bir qismi sifatida qaralishi, rahbar bilan muntazam muloqot orqali qayta aloqa tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.
- 5) Raqamli portfellar va dalillarga asoslangan baholash – direktorlarning faoliyati yozma hisobot emas, balki real dalillar (yutuqlar, loyihalar, jamoa fikri, ota-onalar mulohazalari) asosida baholanishi kerak.

Minnesota modelining asosiy g'oyasi shundaki: baholash bu – jarima emas, rivojlanish yo'li. Bu fikr bizning qarashlarimizga ham mos keladi. Direktor malakasini oshirishda uni qo'llab-quvvatlash, fikrini eshitish, zaif joylarini aniqlash va unga individual yondashish eng samarali yo'l hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimi yangi islohotlar sari yo'naltirilayotgan ayni paytda, baholash tizimini ham zamonaviy tamoyillar asosida yangilash ayni muddaodir. Bu nafaqat direktorlar salohiyatini oshiradi, balki butun ta'lim tizimida ishonch, erkinlik va o'zgarishga tayyorlik muhitini shakllantiradi. Collegial inquiry – bu o'zaro fikr almashish, izchil muhokama va pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish orqali o'z-o'zini rivojlantirish shaklidir ^[1].

X. Temirov o'z tadqiqotida malaka oshirish kurslarida faqat nazariy bilim berish emas, balki rahbarni o'z faoliyatini tahlil qilishga, chuqur mushohada yuritishga, kamchilik va yutuqlarni anglashga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi ^[12]. Unga ko'ra, refleksiya – bu rahbar o'z faoliyati, qarorlari va boshqaruvdagi yondashuvlarini o'rganib chiqib, kelgusida ularni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish jarayonidir. Reflektiv faoliyat rahbarning ongli o'zgarishiga, qaror qabul qilishda puxta tahlilga, hamda ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon mustaqil va chuqur fikrlovchi rahbarlarni shakllantiradi. Ular o'zining kuchli va zaif jihatlarini tahlil qilish orqali samarali strategiyalar ishlab chiqishga qodir bo'ladi. Ayniqsa, global ta'lim muhitidagi tezkor o'zgarishlar fonida refleksiya qobiliyati direktorlar uchun asosiy kasbiy kompetensiyalardan biriga aylanmoqda.

Murabbiylik – bu ko'proq shaxsiy, maxfiy va ishonch asosidagi qo'llab-quvvatlash shakli bo'lib, ayniqsa yangi tayinlangan yoki izolyatsiyadagi rahbarlar uchun samaralidir ^[10]. D. Hayes murabbiylikning asosiy e'tibori o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi ^[8]. O'zbekistonda murabbiylik ko'proq "ustoz-shogird" shaklida mavjud bo'lsa-da, bu tizimni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish zarur. "Direktorlar maktabi" orqali bu yo'nalishda ijobiy qadamlar tashlangan. Yuqorida ko'rsatilgan ustun amaliyotlar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun dolzarb va hayotiy ahamiyatga ega. "Ilmli direktorlar klubi", "Direktorlar Akademiyasi", malaka oshirish markazlari hamda attestatsiya va sertifikatlash tizimi – bularning barchasi rahbarlarning salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Quyida O'zbekiston ta'lim tizimida maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlovchi "ustun amaliyotlar"ni samarali integratsiya qilish bo'yicha tamoyil va mezonlar tizimli tarzda taqdim etiladi. Bu takliflar ta'lim siyosatini ishlab chiqishda, mahalliy boshqaruv organlari uchun metodik qo'llanma yaratishda yoki ilmiy ishlanmada asos sifatida ishlatilishi mumkin.

1-jadval: Integratsiya qilish mezonlari (baholash ko'rsatkichlari)

Yo'nalish	Mezon (indikator)
Teaming	Hududiy rahbarlar tarmog'i mavjudligi; yig'ilishlar soni; ishtirokchilar soni
Leadership Roles	Direktorning qaror qabul qilishdagi mustaqillik darajasi; rahbarlar ishtirokidagi maslahat kengashlari soni
Collegial Inquiry	Direktorlar o'rtasidagi reflektiv suhbatlar soni; tahliliy faoliyat dalillari
Mentoring	Tajribali direktorlar soni; mentor-rahbar juftliklari soni; mentorlik sessiyalari
Malaka oshirish	Individual rivojlanish rejalar soni; o'tilgan treninglar soni; post-trening baholash
Baholash va monitoring	Baholashda foydalanilayotgan indikatorlar soni; dalillarning xilma-xilligi
Rag'batlantirish tizimi	Kasbiy o'sish bilan bog'liq moddiy/nomodiy rag'batlar mavjudligi
Axborot texnologiyalari	Raqamli portfel yuritilishi; onlayn tarmoqlarda faollik; webinarlar soni



O'zbekiston ta'lim tizimida "ustun amaliyotlar"ni integratsiya qilish uchun yuqoridagi tamoyillar konseptual asos bo'lib xizmat qiladi, mezonlar esa bu tizimni baholash va takomillashtirish vositasidir. Mazkur yondashuvlar maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda sifatli, tizimli va barqaror modelni shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi ta'lim rahbarlari – bu faqat boshqaruvchi emas, balki o'zgarishga yetaklovchi, innovatsiyani targ'ib qiluvchi va o'quvchilar taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi shaxslardir. Ularni qo'llab-quvvatlash – bu faqatgina kasbiy majburiyat emas, balki ta'lim tizimining barqaror rivojlanishining kafolatidir. Drago-Severson va Blum-DeStefano tomonidan taklif etilgan ustun amaliyotlar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham mos va samarali modeldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Drago-Severson, E., & Blum-DeStefano, J. (2018). Leading Change Together: Developing Educator Capacity within Schools and Systems.
2. Sutchter, L., Podolsky, A., & Espinoza, D. (2017). Supporting Principals' Learning: Key Features of Effective Programs.
3. Ford, T. G., Liden, D. L., & Williamson, R. D. (2020). Central office support in principal development. Educational Administration Quarterly.
4. Minnesota State Department of Education. (2019). Principal Evaluation Model.
5. Herrmann, M. A., et al. (2019). Principal Professional Development Study. U.S. Department of Education.
6. Johnston, W. R., et al. (2016). Supporting Principals' Professional Development. RAND Corporation.
7. Thessin, R. A. (2023). Principal supervisors as learning partners. Journal of Educational Change.
8. Hayes, D. (2019). Mentoring for Instructional Improvement. Leadership and Policy in Schools.
9. Swaminathan, R., & Reed, S. (2020). Leading While Black: Challenging the Myth of Black Inferiority in the Classroom.
10. Watts, J. (2023). The Mentorship Gap in Principal Development. School Leadership Review.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni.
12. Temirov, X. J. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining professional rivojlanish komponentlari.
13. Xalq ta'limi vazirligi rasmiy axborotlari va [www.lex.uz].
14. [www.cyberleninka.ru]: boshqaruv kompetensiyalari bo'yicha ilmiy maqolalar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.